

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN IN SAID AHMAD'S NOVEL "SILENCE"

Khasanova Shahnoza Akmal qizi

Gulistan State University Faculty of Philology

3rd year student of the Uzbek language department

Scientific supervisor: Turayeva Dilnoza Nematullayevna

Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

Annotation: The article analyzes the artistic interpretation of the image of women in Said Ahmad's novel "Silence". The work illuminates the ideas of humanity, loyalty, purity and willpower through the images of women - mother, sister, Jayrona and Bodomgul - against the backdrop of the eternal struggle between evil and goodness. In particular, in the image of Jayrona, the embodiment of a woman not only as a symbol of love, but also as a symbol of courage, justice and faith in life is revealed with a unique artistic skill. The article shows the role of these images in the plot of the work, their socio-artistic significance based on an analytical approach.

Keywords: novel, image of women, imagery, allegory, character, spiritual experience, psychological conflict, artistic interpretation.

SAID AHMADNING "JIMJITLIK" ROMANIDA AYOLLAR OBRAZINING BADIY TALQINI

Xasanova Shahnoza Akmal qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti

O'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar To'rayeva Dilnoza Nematullayevna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent



Annotatsiya: Maqolada Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida ayollar obrazining badiiy talqini tahlil etilgan. Asarda yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi abadiy kurash fonida ayollar siymosi – ona, singil, Jayrona va Bodomgul obrazlari orqali insoniylik, sadoqat, poklik va irodalilik g‘oyalari yoritiladi. Ayniqsa Jayrona obrazida ayolning nafaqat muhabbat, balki jasorat, adolat va hayotga ishonch timsoli sifatida gavdalantirilishi o‘ziga xos badiiy mahorat bilan ochib berilgan. Maqolada ushbu obrazlarning asar syujetidagi o‘rni, ularning ijtimoiy-badiiy ahamiyati tahliliy yondashuv asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: roman, ayollar obrazi, obrazlilik, baiiylik, personaj, ruhiy kechinma, psixologik konflikt, badiiy talqin.

Kirish

Adabiyot inson hayotining eng murakkab, eng nozik jihatlarini aks ettiruvchi ko‘zgidir. Har bir yozuvchi o‘z asarlari orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar, inson tuyg‘ularini va hayot haqiqatini badiiy tilda ifoda etishga intiladi. Adabiyotimizda ham inson ichki dunyosi va jamiyatning yozilmagan qonunlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni mohirona yoritib bergan ijodkorlardan biri Said Ahmaddir. Uning “Jimjitlik” romani yozuvchining badiiy mahoratini, inson ruhiyatini chuqur anglash qobiliyatini yaqqol namoyon etgan asarlardan biridir. Roman yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi abadiy kurashga bag‘ishlangan. Asarda bosh qahramon Tolibjonning ayanchli o‘tmishi bilan birga jamiyatdagi adolatsizliklar, fisq-u fasodga to‘la amaldorlarning riyokorligi mahorat bilan tasvirlanadi. Asardagi bosh salbiy obraz Mirvali timsolida jamiyatdagi yovuzlik, manmanlik va vijdonsizlik ko‘rinishlari ochib berilsa, ayol obrazlari Tolibjonning onasi, singlisi Zaynab, Jayrona, Bodomgul va boshqalar orqali ezgulik, sabr, sadoqat va mehr timsollari yuksak badiiylkda ifodalangan. Garchi roman markazida erkak obrazlar turgandek tuyulsa-da, asardagi ayol obrazlari roman g‘oyasini to‘liq anglashda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi asarga hech bir voqeani va hech bir obrazni bekorga kiritmaydi. Yozuvchining bundanbir maqsadi bo‘ladi albatta. Bu asarning haqiqiy o‘qirli asar bo‘lishida ham ayollar obrazining o‘rni beqiyosdir. Asarda ayol obrazlar chin mehr-muhabbatli, o‘zlik bilan birga jasurlik va o‘z fikriga ega bo‘lgan ayollar sifatida tasvirlanadi.



.Shu bois, ushbu maqolada Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida ayollar obrazining badiiy talqini, ularning asar syujetidagi o‘rni va g‘oyaviy ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Said Ahmad “Jimjitlik” romanida ayol obrazlarga katta ma’naviy yuk yuklaydi. Ular asar markazida bo‘lmasada, voqealarning ruhiy asosini tashkil etadi. Onaning mehribonligi, singilning samimiyligi va Jayronaning sadoqati orqali yozuvchi hayotdagi eng oliy fazilat ezgulikni ifodalaydi. Asarda onaning obrazi o‘zgacha mehr va insoniylik bilan yoritilgan. Tolibjon vataniga qaytgach, ichki tinchlikni izlashida onaning mehr-muhabbati muhim o‘rin tutadi. Har bir inson ona bag‘ridagi halovatni boshqa hech qayerdan topa olmaydi. Tolibjon ham taqdirning og‘ir zarbalariga uchragan, beshavqat qismat butun hayotini parokanda qilgan, jamiyatning adolatsizliklaridan ezilgan bo‘lib, halovat topish uchun onasi yoniga qaytgan edi. "Kampir nihoyatda sabr-qanoatli edi. Oldingi eridan qolgan yetim qizi Zaynab, keyingi eridan qolgan Tolibjon, singlisidan qolgan Mirvali. U mana shu uch yetimchani oyoqqa turg‘izish ham qarzim, ham farzim, deb bilardi. Bu tog‘li yurtda fidoyi xotinlar ozmunchami deysiz". Yozuvchi ushbu jumlar orqali nafaqat kampirning, balki butun o‘zbek ayollarining bag‘rikengligini tasvirlab bergan. U Tolibjonning haqiqiy onasi emas, u o‘gay bo‘lsa-da, Tolibjonni o‘z farzandiday ko‘radi, unga mehr beradi. Yozuvchi bu obraz orqali ayol tabiatidagi ona mehrining cheksizligini ko‘rsatadi. Onalarda shunday bir ilohiy mehr bo‘ladiki, o‘zganing farzandini ham yuragining bir parchasidek ko‘rishadi. Tolibjonning onasi ham shunday onalardan edi. Buni asar avvalida yaqqol ko‘rishimiz mumkin: – Hoy, kimsan, bolam? Hiding dimog‘imga tanish.

Kampirning ko‘zi ojiz edi. U Tolibjonning yelkalarini timirskilab silab ko‘rdi. Taniyolmadi.

– Meni diqqat qilmay o‘zing aytaqol, bolam! Kimsan? Hiding Tolibginamning hidiga o‘xshab ketyapti.

Yig‘lab ko‘zidan yosh chiqazolmagan Tolibjonning o‘pkasi to‘lib ketdi. Hiqqillab turib birdan ho‘ngrab yubordi.

Kampir uning boshini silab, peshonasini yuziga bosib, sekin dedi:



– Qayoqlarda yurgan eding, bolam? Ko'zim ochiq paytlarda qayoqlarda eding, tentagim?

Yuqoridagi jummalarni o'qigan kitobxonni ushbu voqea ta'sirlantirmay qo'ymaydi. Said Ahmad ona obrazini ortiqcha so'zlersiz, lekin chuqur ma'no bilan chizadi. Uning har bir harakati orqali ayollarga xos samimiyat seziladi. Onaning obrazi asarda voqealar markazida turgan bosh qahramonlar qismatini ham to'ldiradi. Shu jihatdan u roman g'oyasining ma'nosini yanada chuqurlashtiruvchi, ruhiy muvozanatni saqlovchi timsol sifatida gavdalanadi. Asarda Tolibjonning o'gay singlisi ko'p sahifalarda qatnashmasa-da, yozuvchi uning sodda va samimiyligini yoritib bera oladi. U akasiga mehr bilan qaraydi, o'gaylikni his qildirmaydi: "Zaynab akasining yelkasiga yangi to'n tashlab, gilam do'ppi kiydirdi. U to'g'riga o'tirib olib, akasidan ko'z uzmasdi. Goh kuladi, goh mo'lt-mo'lt yosh to'kib yig'laydi". Bir biriga umuman begona kishilarning haqiqiy aka-singildan ham yaqin bo'lib ketishida onaning o'rni beqiyosdir, chunki ona farzandlarini birdek ko'rib, mehr berib tarbiya qilgan. Yozuvchi bu orqali hayotda insonlarni bog'lab turuvchi eng buyuk kuch – mehrni ifoda etadi. Singilning so'zlari, holati yoki harakati asarda ko'p tasvirlanmagan bo'lsa-da, uning borligi Tolibjonning ruhiy holatiga iliqlik kiritadi.

Har bir inson hayotida uni o'zgartirib yuboradigan bir mehr, bir nigoh bo'ladi. Tolibjon hayotida ana shunday mehr va ishonch manbai bo'lgan ayol – Jayrona edi. Tolibjonni o'zga yurtlarga topshiriq bilan yuborishadi. U yerda uning xotini vabo kasaliga chalinadi. Bechora ayol yolg'izgina bolasidan ko'nglini uzolmay, jon taslim qiladi. Bu ham yetmagandek Tolibjon yolg'iz farzandidan ham ayrilib kasal bo'lib qolganida uning yonida turib o'z jigaridek mehribonchiliklar qilgan ayol — Jayrona edi. U nafaqat sevgan ayol, balki Tolibjon uchun ruhiy tayanch, umid va yashash sababidir. Said Ahmad Jayrona siymosida ayolning pok muhabbatini, sadoqatini va hayotga bo'lgan ishonchini badiiy yuksaklikda gavdalandiradi. Uning obrazida yozuvchi nafaqat ayol kechinmalarini, balki inson qalbining ezgulikka intilish kuchini ham ifoda etadi. Jayrona asarda shunchaki bir ojiza sifatida tasvirlanmaydi. U o'z mustaqil fikriga ega, adolatsizliklarga ko'z yumib ketmaydigan, ularga qarshi kurashadigan, mard ayol sifatida gavdalanadi. Buni quyidagi jumlada yaqqol ko'rishimiz mumkin:



– Tolibjon aka, siz kurashga yaramaydigan, irodasi bo'sh odam ekansiz. Siz Lev Tolstoy nazaryasiga amal qiladigan kishilardansiz. Bilasizmi, Tolstoy zulimga qarshi bosh ko'tarma, degan aqidani oldinga suradi. Men sizga qoyil emasman. Siz nima qilyapsiz, e-e... – Jayrona hafsalasi pir bo'lib, qo'l siltab qo'ydi...

– Bu yerga kelib nima ish qilyapsiz? Hozirgi qilayotgan ishingizni shu yerdagilar ham bemalol qila olishadi. Bir mamalakatdan ikkinchi mamlakatga kelib qiladigan ish emas bu. Sizni mutaxassis sifatida yuborishgan emas. Quvg'in qilishgan. To'g'rimi?

U shunday jasoratli qiz, faqat jasoratli emas balki bilimli va aqlli qiz ham. Institutni qizil diplom bilan bitirgan, arab, ingliz, fors tillarini xuddi o'z ona tilidek yaxshi biladigan, ko'plab chet el mamalakatlarida ishlab sayohat qilgan qiz edi.

Ko'plab insonlarning yostig'ini quritgan, yovuz va vijdotsiz Mirvaliga qarshi kurashishga hech kimning jur'ati yetmaydi. Ammo Jayrona bu zulm oldida jim turmaydi. U Mirvalining kirdikorlarini fosh etadi, haqiqatni yuzaga chiqarish uchun hayotini xavf ostiga qo'yadi. U erkaklar orasida qo'rquv uyg'otadigan Mirvalining o'zi bilan ham mardlarcha to'qnashadi. Uning bu jasorati nafaqat adolatparvarlik, balki insoniylik va vijdon timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Jayrona orqali yozuvchi ayol qalbining cheksiz kuchini, haqiqat uchun kurashishdagi qat'iyatini va muhabbatning ezgulikka olib boruvchi qudratini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Jayrona uchun adolat – eng oliy qadriyat. U shaxsiy manfaat yoki hayotini emas, balki haqiqatni himoya qilishni tanlaydi. Shu jihatdan, Jayrona obrazi o'z davrining ilg'or ayoli timsolidir. Uning muhabbati ham soddalik va samimiyatga asoslangan. Tolibjon bilan bo'lgan munosabatlarida Jayrona muhabbatni nafaqat hissiyot, balki ma'naviy uyg'onish sifatida kechiradi. U sevgan insonini yo'qotsa ham, sevgisidan voz kechmaydi. Shu orqali yozuvchi ayol qalbining yuksakligini, uning muhabbatda ham, fojia qarshisida ham sobitliginini namoyon etadi.

Asar yakunida Jayronaning taqdiri baxtli yakun topmaydi, ammo u mag'lub emas. Chunki u haqiqatni aytishdan qo'rqmagan, yovuzlikka qarshi turgan, muhabbatni esa sofligicha saqlagan ayol sifatida esda qoladi. Said Ahmad bu obraz



orqali ayollarning kuchi nafaqat mehrda, balki haqiqat uchun kurashda ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Asarda Jayrona obrazi poklik va sadoqat timsoli bo‘lsa, Mirvali bilan aloqador ayollar – axloqiy zaiflik, irodasizlik va jamiyatdagi ruhiy inqiroz timsolidir. Yozuvchi bu ayollar orqali nafaqat vijdotsiz erkakning ta‘sirini, balki inson ruhining zaif tomonlarini ham ko‘rsatadi.

Mirvali hokimiyat, boylik va erk qudratidan mast bo‘lgan inson. U o‘z mansabi va mavqeidan foydalanib, ko‘plab begunoh ayollarni yo‘ldan ozdiradi: "Bir vaqtlar nihoyatda chiroyli bo‘lgani bilinib turgan, endi xastalikdanmi yoki turmush mashaqqatlaridanmi rangi siniqqan, yuziga ajin tusha boshlagan bu ayolni ilgari biron marta ko‘rmagandi.

– Menda ishingiz bormidi?— dedi hayron bo‘lib Bodomgul.

Xotin , ha, deb bosh irg‘adi... Xotin istehzo bilan dedi:

– Yig‘labsiz-a? Hali ko‘p yig‘laysiz, singlim. Vaqtida biz ham qon-qon yig‘laganmiz... Mirvalining sizdan oldingi o‘ynashi bo‘laman. Bo‘yningizdagi shoda-shoda marvaridlar avval mening bo‘ynimda edi. Mirvali omon bo‘lsa, bu marvaridlar hali ko‘p xotinlarning bo‘ynini bezaydi...

Bu ayollar orqali yozuvchi jamiyatdagi adolatsizlik va ayolning zaiflashgan ijtimoiy mavqeini ko‘rsatadi. Ularning jim turishi – bu faqat qo‘rquv emas, balki o‘sha davr muhitining ayollar ustidan tazyiqini ham aks ettiradi.

Bu obrazlar “yovuzlik” g‘oyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Ular Mirvalining shafqatsizligini yanada yaqqol ko‘rsatish uchun fon vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, yozuvchi o‘quvchini o‘ylashga majbur qiladi: “Nega bu ayollar jim bo‘ldi? Nega yovuzlikka qarshi chiqisholmadi?”

Bodomgul ham Mirvalining tuzog‘iga tushgan ayollardan biri edi. U dastlab oddiy, o‘z oilasiga sodiq, mehribon ayol sifatida gavdalanadi. Ammo Mirvalining shirin so‘zlari, hiyla va yolg‘onlariga uchib, asta-sekin o‘z hayot yo‘lidan adashadi. Bodomgul qarindosh-urug‘larining yuziga oyoq tirab, Mirvaliga ilakishib ketib qoladi. O‘z eri va farzandidan yuz o‘girib, Mirvali bilan ketishi uning axloqiy



tanazzulini, ruhiy zaiflashuvini ko'rsatadi. Shu orqali yozuvchi ayol qalbining sinuvchanligini, jamiyatda ayollarga nisbatan bo'lgan beparvolik va bosimning oqibatlarini ochib beradi: – Nima gap bo'ldi? – dedi xavotirlanib Tolibjon.

– Mirvali Toshkentda. Nima qilishimizni bilmay oldingizga keldim. Bodomgul o'zini osib qo'yibdi. Bodomgul o'z joniga qast qiladi. Bodomgulning hayoti – bu ogohlantiruvchi timsol. Yozuvchi uni ayblamaydi, balki achinish bilan tasvirlaydi. Chunki Bodomgulning yo'ldan ozishi – yovuzlikning kuchi va ijtimoiy muhitning zaifligidan dalolat beradi. Shunday qilib, Bodomgul obrazida Said Ahmad ayolning ma'naviy inqirozini, jamiyatdagi adolatsizliklarning inson ruhiga qanday ta'sir ko'rsatishini teran badiiylik bilan ifodalagan.

Xulosa. Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida inson ruhiyatining eng nozik qatlamlari, ayniqsa ayol qalbining murakkab kechinmalari nihoyatda tabiiy va hayotiy tarzda yoritilgan. Asarda ona, singil, Jayrona va Bodomgul kabi ayollar obrazlari orqali yozuvchi jamiyatdagi turli toifadagi ayollar taqdirini, ularning orzu-umidlari va iztiroblarini badiiy mahorat bilan ochib beradi. Jayrona siymosida sadoqat va jasorat, poklik va irodalilik mujassam bo'lsa, Bodomgul timsolida insonning ruhiy sinov oldidagi oqizligi, iymon va axloq sinovida yiqilish holati ko'rsatiladi. Shu tariqa yozuvchi ayol obrazlarini qarama-qarshi yo'nalishlarda talqin etib, hayotdagi ezgulik va yovuzlik, to'g'rilik va gumrohlik o'rtasidagi abadiy kurashni aks ettiradi. Asarning har bir sahifasida insoniy qadriyatlar, vijdon, muhabbat, sadoqat va ma'naviy kuchning qadriga yetish g'oyasi ilgari suriladi. Said Ahmad “Jimjitlik” orqali o'quvchini nafaqat hayotning achchiq haqiqatlariga duch keltiradi, balki uni fikrlashga, insoniylikni asrashga, ruhiy jimjitlikni yengishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad S. Jimjitlik (roman). – Toshkent: Sano-standart, 2021.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2025.
3. Nematullaevna, T. D. (2019). The Process of Literary Creativity and Aesthetic Interpretation. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(3), 49-53.



4. Nematullayevna, T. D. ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF RULERS IN CYCLE NOVELS.
5. Egamnazarova, S., & To'Rayeva, D. (2025). SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSON VA TABIAT MUNOSABATLARI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(5-3), 71-73.
6. Тураева, Д. Н., Саймуратова, И. Т., & Туйчиева, З. Х. (2024). ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И ОБРАЗЫ. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2(1-1), 198-202.
7. Saymuratova, I., To'rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 19-24.
8. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER'S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. Open Access Repository, 9(12), 163-174.
9. Turayeva, D., Sariboyeva, M., & Primov, A. (2024). Fundamentals of creative laboratory. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
10. To'rayeva, D. (2024). Badiiy asar boigrafiyasi bilimdoni. Hamkor konferensiyalar, 1(2), 67-70.
11. Nematullayevna, T. R. D. (2025). TARIXIY ASARLARDA BADIY NUTQ VA XALQ SHEVALARINING O'RNII. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(3), 356-360.
12. Nematullaevna, T. D. (2024). THE WRITER'S CREATIVE LABORATORY AND THE PROBLEM OF AESTHETIC INTERPRETATION. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2(1-1), 66-70.
13. Dilnoza To'rayeva NEMATULLAYEVNA: Nematullayevna, T. D. ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF RULERS IN CYCLE NOVELS.
14. Dilnoza To'rayeva NEMATULLAYEVNA: Nematullaevna, D. T. (2022). Artistic interpretation of amir temursimge in national prose during the independence



years (in the sample of the play “libra”(“mezonburji”) after asaddilmurod. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 426-429.